

TOPISHMOQLARDA OLAM LISONIY MANZARASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Muhammadsodiq Shodmonov

Alfraganus universiteti, Uzbekistan

E-mail: shodmonov1123455sodiq@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq topishmoqlarida olam lisoniy manzarasining konseptual va kognitiv asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotda topishmoqlar shunchaki folklor janri emas, balki insonning bilish (kognitiv) faoliyatini, tafakkur tarzini hamda milliy-madaniy realiyalarni aks ettiruvchi diskursiv birlik sifatida tahlil qilingan. Maqolada topishmoqlardagi implitsit nominatsiya, metaforik ko'chishlar hamda axborotni kodlashtirishning tipik modellari (o'rin + belgi + predmet kabi) konkret lingvistik misollar vositasida yoritib beriladi. Inson ongidagi kognitiv bilimlar zaxirasi va assotsiativ aloqalar topishmoqlar yechimini topishda hamda vertikal kontekstni anglashda asosiy omil ekani isbotlangan.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, kognitiv tilshunoslik, konsept, topishmoq, folklor diskursi, implitsit nominatsiya, metafora, assotsiativ aloqalar, kodlashtirish modellari.

CONCEPTUAL BASIS OF THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD IN PUZZLES

Abstract. This article analyzes the conceptual and cognitive foundations of the linguistic picture of the world in Uzbek folk riddles. The study considers riddles not merely as a folkloric genre, but as a discursive unit that reflects human cognitive activity, thought patterns, and national-cultural realities. The article highlights implicit nomination, metaphorical transfer, and typical models of information encoding (e.g., location + attribute + object) through concrete linguistic examples. It is demonstrated that background cognitive knowledge and associative connections in the human mind serve as key factors in solving riddles and understanding vertical context.

Keywords: linguistic picture of the world, cognitive linguistics, concept, riddle, folklore discourse, implicit nomination, metaphor, associative links, encoding models.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЯЗЫКОВОГО ЛАНДШАФТА МИРА В ЗАГАДКАХ

Аннотация. В данной статье изучаются концептуальные и когнитивные основы языкового ландшафта мира в узбекских народных загадках. Исследование анализирует загадки не просто как фольклорный жанр, а как дискурсивную единицу, отражающую познавательную деятельность человека, образ мышления и национально-культурные реалии. В статье на

конкретных лингвистических примерах освещаются имплицитная номинация, метафорические переносы и типичные модели кодирования информации (например, место + знак + объект) в загадках. Доказано, что когнитивный запас знаний и ассоциативные связи в человеческом сознании являются основными факторами в поиске решений загадок и понимании вертикального контекста.

Ключевые слова: языковой ландшафт мира, когнитивная лингвистика, концепция, загадка, фольклорный дискурс, имплицитная номинация, метафора, ассоциативные связи, модели кодирования.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda inson va til munosabatlarini antropotsentrik paradigma asosida o'rganish yetakchi o'rin tutmoqda. Bu borada kognitiv tilshunoslik tilni shunchaki aloqa va axborot uzatish vositasi emas, balki insonning bilish (kognitiv) faoliyati, olamni idrok etish, axborotni qayta ishlash, tartibga solish va xotirada saqlashning asosiy mexanizmi sifatida tadqiq etadi. Har bir xalqning tili uning asriy dunyoqarashi, milliy madaniyati, geografik muhiti hamda turmush tarzidan kelib chiqqan holda "olamning lisoniy manzarasi"ni shakllantiradi.

Ma'lumki, fan-texnika taraqqiyoti va globallashuv sharoitida insoniyatning dunyoni idrok qilish va unga o'z lisoniy ongi, idroki va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lish, muloqot turlari va shakllarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda inson kommunikativ faoliyatida o'zi yashab turgan hudud, qadriyatlari, an'analari muhim omillardan sanaladi. Bu esa olamni anglash va idrok qilishning muhim omillaridan biri bo'lmish konseptlar vositasida olamning lisoniy manzarasini til egalari ongida shakllantirgan. Voqelikni aks ettirish so'z vositasidagina emas, balki dastlab insonning tafakkurida yuz beradi. Tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilma insonning lisoniy faoliyatida o'z ifodasini topadi.

Olamning lisoniy manzarasini o'rganishda xalq og'zaki ijodi, xususan, folklor diskursining eng qadimiy hamda ixcham janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlar alohida ilmiy-nazariy va lingvokulturologik qiymatga ega. Topishmoqlar asrlar davomida shakllangan xalq tafakkurining, mantiqiy fikrlash tarzi va metaforik tasavvurlarining

muhrlangan shaklidir. An'anaviy tilshunoslikda topishmoqlar asosan ularning badiiy-uslubiy xususiyatlari, poetik san'atlari hamda tematik tasnifi nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikda ularning konseptual asoslarini, kognitiv-pragmatik xususiyatlarini va olamni lisoniy modellashtirishdagi o'rnini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

METODOLOGIYA

Kognitiv tilshunoslikning asosiy predmeti sifatida kognitiv faoliyat sifatidagi til qatnashadi. Til inson bilish faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, o'zida madaniy, psixologik hamda kommunikativ faktorlarning o'zaro aloqasini aks ettiradi. Topishmoqlar insonning bilish faoliyatida, uning tafakkur tarzini shakllantirishda muhim vositalardan bo'lib xizmat qiladi. Voqelikdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok qilish qator mantiqiy-ruhiy harakatlarni o'z ichiga olgan murakkab faoliyatdir. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini, albatta, ma'lum bir obyektни o'ziga ma'lum bo'lgan boshqa obyektlar bilan qiyoslash va taqqoslash harakati tashkil qiladi.

Topishmoq matnida obyekt nomi birdaniga oshkor etilmaydi. Aksincha, uning eng muhim yoki ikkinchi darajali belgilari, joylashuv o'rne, vazifasi, shakli va harakati ma'lum bir lisoniy-kognitiv kodlashtirish orqali yashiriladi. Bu jarayon so'zlovchi va tinglovchidan umumiy kognitiv bazaga, ya'ni bir xil milliy-madaniy realiyalardan va hayotiy tajribadan xabardorlikni talab etadi. Shu bois topishmoqlarda olam lisoniy manzarasining konseptual asoslarini o'rganish o'zbek tilining kognitiv potentsialini va milliy mentalitetning lisoniy aks etish mexanizmlarini ochib beradi.

Tadqiqotning maqsadi – o'zbek xalq topishmoqlaridagi konseptual tuzilmalarni aniqlash, ularda olam lisoniy manzarasining aks etish tamoyillarini va kognitiv-metaforik modellashtirish mexanizmlarini yoritib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilandi:

1. Kognitiv tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi va konsept tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;

2. Topishmoqlarda implitsit nominatsiya va metaforik ko'chishlarning kognitiv mexanizmlarini ko'rib chiqish;
3. O'zbek topishmoqlaridagi asosiy konseptual sohalarni (Inson, Tabiat, Maishiy hayot va mehnat qurollari) hamda ularni kodlashtirish modellari (*o'rin + belgi + predmet* va h.k.)ni aniqlash;
4. Topishmoqlarda milliy-madaniy realialarning lisoniy va kognitiv aks etish xususiyatlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berish.

Topishmoqlar bo'yicha monografik tadqiqot olib borgan M.Saitboeva ot asosli qurilmalarning uchta struktur-semantik ko'rinishini farqlaydi. Birinchi tip tasdiq va inkorni ifodalab, almashinib qo'llanuvchi predikativ birliklardan tuzilgan qo'shma gaplar: *Shoxi bor, ho'kiz emas, egari bor, ot emas.*(Raketa) kabi. Ikkinchi tipga o'xshatish ifodalovchi birliklarni kiritadi, bu holatda ot asos tarkibida o'xshatish affikslar yoki leksemalar qo'llanadi: *O'zi ignaday, boshida sallasi bor.*(Gugurt)kabi.

Uchinchi tipga jumboqlanayotgan predmet belgilari boshqa bir predmet unga moskeluvchi belgilari orqali berilgan qurilmalarni kiritadi: *Boshi taroq, dumi o'roq.* (Xo'roz)kabi.

Topishmoqlarning nominativ aspekti haqidagi maqolada esa topishmoqlardagi implitsit nominatsiya haqida fikr yuritiladi. Implitsit nominatsiya bu topishmoqdagi narsa-hodisalarning ataylab pardali formada nomlanishidir. Tadqiqotchining fikricha, o'zbek topishmoqlarida implitsit nominatsiyaning asosan quyidagi usullari keng tarqalgan:

1. Jumboqlanayotgan denotat xususiyatlariga mos kelmaydigan, yot belgilarni aytish: *Chopsa, chopilmas, Bo'lsa, bo'linmas* (soya) kabi.
2. Denotatning unchalik muhim bo'lmagan ikkinchi darajali belgilarini aytish. Masalan, supurgi haqidagi topishmoqda uning tashqi ko'rinishiga ishora qilinadi, vaholanki, supurgining eng muhim belgisi uning vazifasida ko'rinadi.

3. Jumboqlanayotgan predmetni boshqa predmetga qiyoslash. Jumladan, oyni patirga, yerni gilamga o'xshatish kabi.

Ko'rinib turganiday, topishmoqlarning janr xususiyatlariga bag'ishlangan aksariyat ishlarda ularning semantik va tasnifiy turlariga e'tibor qaratilgan. Topishmoq inson kognitiv faoliyati asosida yuzaga keluvchi, o'zida milliy-madaniy realiyalarni aks ettiruvchi folklor diskursi janridir. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining namunasi sifatida o'zining ixchamligi va barqarorligi, o'ziga xos yashirin ma'noga egaligi, obrazlarining metaforik ifodaga asoslanishi bilan ajralib turadi. Topishmoqda mavjud narsa haqida gapiriladi va uni muhim belgilari asosiga yashiradi. "Shu jihatdan, topishmoqning g'oyasi –haqiqatan ham bo'lgan narsa haqida gapirish va bu bilan birga, tamomila mumkin bo'lmagan narsani birlashtirishdir. Bunga (ko'p qo'llanadigan) so'zlar vositasida erishib bo'lmasa, metaforalar vositasida erishish mumkin".

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'rinib turganiday, topishmoqlarda til va tafakkur, insonning bilish jarayonidagi qiyoslash va taqqoslash jarayonining uzviyligi muhim omillardan sanaladi. Bu jarayon inson ongidagi kognitiv bilim va topishmoqlar tarkibidagi leksik birliklarning assotsiatsiyasiga asoslanadi. Assotsiativ aloqalar esa insonning o'zi mansub bo'lgan tarixiy sharoit asosidagi hayotiy va bilim tajribalariga asoslanadi.

Oddiygina topishmoqlar javobini topish jarayonini ko'z oldimizga keltiraylik. "Topishmoqlar" to'plamidagi "Odam, uning a'zolari va xislatlari haqida" mavzuiy guruhidagi ayrim topishmoqlarni tahlilga tortamiz. *Oxurda ola buzoq o'ynaydi* (Ko'z). Ushbu topishmoqni topish jarayonida inson ongidagi bilimlar zaxirasida ko'z haqidagi muhim belgilar ajratiladi:

- ko'z kosasi –o'rin belgisi, ya'ni ko'zning ko'z kosasi ichida joylashganligi;
- oq-qora - rang belgisi, shuningdek buzoqdek silliqlik - shakliy va "namlik" –xususiyat

'ynamoq - harakat belgisi, ya'ni ko'zning doimo harakatda bo'lishi topishmoq mazmuniy

mundarijasidan o'rin olgan. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida bir predmet yoki hodisa to'plamda 13 ta topishmoq (203-215-raqamlar ostida) keltirilgan. Masalan, *Kechasi yopiq, Kunduzi ochiq (Ko'z)*. Ushbu topishmoqda esa ko'zning quyidagi belgilari ajratilishi

ususiyat belgisi – insonning kechasi uyquda, kunduzi bedor bo'lishi;

yqudaligi yoki uyg'oqligini bildiruvchi muhim a'zo ekanligi.

o'rinib turganiday, ko'z haqidagi 1-topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning o'rin,

Qayd etilgan kognitiv bilimlar oxurdagi ola buzoqqa o'xshatilgan ob'ektni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inson ko'z haqidagi kognitiv bilimlarini topishmoqdagi o'xshatishli qo'llanish bilan solishtiradi, uning o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlaydi. Ob'ektning o'xshashlik belgilari topishmoqning yechimi uchun xizmat qiladi. Inson tafakkurida amalga oshiriladigan bu mantiqiy-ruhiy harakatlar topishmoqda yashiringan ob'ektni aniqlashga imkon beradi.

Topishmoq markazidan inson atrofidagi olam, tabiat va maishiy hayot o'rin oladi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda unda madaniyatning tarixiy va zamonaviy jihatlarini aks ettiruvchi znachimie smisli aks etadi. An'anaviy topishmoqlarda ham, zamonaviy topishmoqlarda ham insonning maishiy hayoti va faoliyati, uni o'rab olgan tabiat olami mavzusi dolzarb sanaladi. Masalan, mehnat qurollari haqidagi topishmoqlarda omoch, urchuq, charx, moki kabilar qatoriga elektr asboblari, lampochka, dazmol, televizor ham qo'shilganligini ko'rish mumkin.

"Topishmoq ikkita qismning birlashuvi va ushbu aloqa natijasida hosil bo'lgan bitta maydonni o'zida namoyon qiladi. Topishmoq matni va javob qismi orqali ifodalanuvchi turli realiyalar hosil bo'ladi. Bu realiyalarning qismlari turli tasnifiy

guruhlarga mansub bo'ladi: jonli-jonsiz, ob'ekt-odamlar, o'simlik va hayvonot olami-insoniyat, tabiiy predmetlar. Topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning belgilari o'ziga xos bo'laklanish tartibi tarzida kodlashtiriladi va topishmoqning eng ko'p tarqalgan turg'un tiplari-modellari hosil qilinadi". Ushbu kodlashtirish tartibi quyidagi tipik modellarda namoyon bo'ladi. Masalan:

o'rin + belgi + predmet: *Qirq hujrada qizil qizlar* (Anor). *Tom ustida qo'sh chiroq.* (Ko'z). *Jar yoqasida yorti chayla.* (Quloq). *Yer tagida kokilli bachcha.* (Piyoz). Mazkur tipdagi topishmoqlarda javob qismi narsa-predmet anglatrsa, javobga ishora qiluvchi stimul so'z ham predmet asosli metafora bo'ladi: *qizil qizlar - anor, yorti chayla - quloq, kokilli bachcha - piyoz* kabi.

O'rin+belgi modelidagi kodlashtirish: O'choq bo'yida turgan, Ikki ko'zini yumgan (Mushuk). *Jar bo'yida jalbiroq.* (Sirg'a)

Harakat + belgi: Bu modelda obyektning harakat doirasi hamda o'sha harakatga xos bo'lgan o'ziga xos tarz (tezlik, qamrov) aks etadi. Masalan: *Bir nafasda olamni kezar* (Fikr). Ushbu topishmoqda "*olamni kezar*" birikmasi harakatni, "*bir nafasda*" iborasi esa harakatning soniyalik va tezlik belgilarini ifodalaydi.

Shakl + vazifa: Obyektning tashqi qiyofasi (shakli) hamda uning asosiy funksional xizmati (vazifasi) o'zaro sintezlashadi. Masalan: *Daraxt emas — yaproqli, ko'ylak emas — etakli, odam emas — so'zlaydi* (Kitob). Bu o'rinda "*yaproqli*" hamda "*etakli*" birliklari predmetning tashqi tuzilishini, "*so'zlaydi*" fe'li esa uning asosiy ma'lumot berish vazifasini namoyon qiladi.

Tabiat konseptual sohasi kognitiv modeli: Tabiat hodisalari haqidagi topishmoqlarda asosan jonsiz unsurlarga jonli obyektlarning harakati va sifati ko'chiriladi. Masalan: "*Oqsoq jo'ja yer qazir*" (*Tomchi*) Bu yerda tomchining holat belgisi (*oqsoq jo'ja*) hamda uning yuqoridan tushib yerga urilishi va iz qoldirishi (*yer qazir*) jonli jonzo'tning xatti-harakati va qiyofasi orqali kognitiv modelashtirilgan.

Topishmoqlar turli tillarda mazmuniy mundarijasi, semantik strukturasi, jumboqlanayotgan predmetning qaysi belgisiga asoslanishi nuqtai nazaridan ham bir-biridan farq qiladi. Bu kabi masalalar galdagi tadqiqotlarimizning asosi sanaladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq topishmoqlari shunchaki folklorik-poetik matnlar emas, balki xalqimizning asriy kognitiv faoliyatini, olam haqidagi tajriba va bilimlari zaxirasini namoyon etuvchi murakkab lisoniy-mentallik tuzilmasidir. Topishmoqlarda olam lisoniy manzarasining aks etishi insonning antropotsentrik dunyoqarashi bilan chirmashib ketgan bo'lib, unda jonsiz narsa va hodisalarga insoniy attributes hamda xatti-harakatlarning ko'chirilishi yetakchi o'rin tutadi. Shuningdek, topishmoqlardagi axborotni kodlashtirish mexanizmi ma'lum bir turg'un kognitiv modellarga (*o'rin + belgi + predmet, harakat + belgi, shakl + vazifa* kabi) tayanadi. Bu modellar va implitsit nominatsiya vositalari so'zlovchi hamda tinglovchidan umumiy lisoniy-madaniy xotiraga hamda assotsiativ aloqalarga ega bo'lishni talab etadi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, topishmoqlarni kognitiv-lingvistik tomondan o'rganish o'zbek tilining konseptual salohiyatini va milliy-madaniy qadriyatlarning til xotirasida saqlanish mexanizmlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- айтбаева М.Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках: Автореф. дис. ... канд. филол наук. - Т., 1984. Стр. 12
- ўминов С. Ўзбек топишмоқларининг номинатив аспекти / Республика ёш филолог олимларининг таъанавий конференция материаллари. - Т.: Фан, 1990. - 103-106-б.
- обулова С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (Ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Номз.дисс. автореф. -Т., 2007. 6-б.
4. Хусаинова З. Топишмоқлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. 31-32-б.
- Абдрашитова М.О. Миромоделирующая функция жанра загадки в фольклорном дискурсе. Автореф. канд.филол. наук. Томск, 2012. Стр. 9